

Navoiy davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi”, DSc Ernazarova Manzura Saparboyevna taqrizi ostida

Subxonova Sanobar Abduhalim qizi

Navoiy davlar pedagogika instituti doktaranti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon raqami: +998943209017
ORCID: 0009-0004-3571-8706
mail: subhonovasanobar@gmail.com

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM “ONA TILI” DARSLIKLARI MUNDARIJASIDA TO‘G‘RI YOZISH
MALAKASINI RIVOJLANTIUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI TAHLILI**

Annotatsiya: To‘g‘ri yozish – imlo har bir shaxsning jamiyatdagi faoliyati uchun juda zarur omil hisoblanadi. To‘g‘r yozish qonuniyatlarini esa o‘quvchilar boshlang‘ich sinflardanoq o‘rganib uni amalda, yozma nutqda qo‘llay boradilar. Unda esa boshlang‘ich sind ona tili darsliklarining o‘rnini judda muhimdir. Ushbu maqolada ham ushbu darsliklarda imlo qoidalari uchun ajratilgan mavzular tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ri yozish, orfografik savodxonlik, imlo muammosi, darslik, topshiriq, mashq.

Аннотация: Правильное письмо – орфография – очень необходимый фактор деятельности каждого человека в обществе. Правила правильного письма учащиеся усваивают еще в начальной школе и применяют их на практике в письменной речи. И место учебников родного языка в начальной школе очень важно. В данной статье также анализируются темы, посвященные правилам правописания в этих учебниках.

Ключевые слова: правильное письмо, орфографическая грамотность, проблема правописания, учебник, задание, упражнение.

Annotation: Writing a right Spell is a very necessary factor for each person's activities in society. The Ricuses, on the other hand, learn from primary schools and apply it in a written speech. In it, the role of the primary school native language textbooks is important. This article also analyzes topics for spelling in these textbooks.

Keywords: accuracy, orphographic literacy, spelling problem, textbook, assignment, exercise.

Boshlang‘ich ta’lim bu har bir inson uchun ham ta’lim va tarbiya olishning, hayotiy bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy va ilk bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda esa boshlang‘ich sind o‘quvchilariga beriladiga bilim va ko‘nikmanning nimaligi va qay tarzda yetkazilishi esa asosiy masaladir. To‘g‘ri yozish – imlo ko‘nikmasi esa jamiyat a‘zolarining har biri uchun esa ijtimoiy hayotning har jabhasida kerak bo‘ladigan, ehtiyojga molik omildir. Ta’lim oluvchilarni esa ushbu bilim va ko‘nikmalarini yaxshi o‘zlashtirishi uchun esa o‘qituvchi tomonida qo‘llaniladigan metodlar va foydalaniladigan darsliklarning ahamiyati kattadir. Ushbu darliklar orqali o‘quvchilar amaliy va nazariy bilimga ega bo‘ladilar hamda ushbu bilimni hayotlari davomida ishda, o‘qishda, har bir jahbada qo‘llab boradilar. Ta’lim oluvchilarning ushbu bilim va ko‘nikmalarini qay yo‘sinda rivojlanishida esa, ushbu foydalaniladigan darsliklarning o‘rni beqiyosdir.

Muhtaram Prizidentimiz Sh.M. Mirziyoyev e’tirof etib o‘tganlaridek: «Yoshlarni zamонави bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahlili va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». [1]

Darhaqiqat, maktab ta’lim tizimida o‘quvchilarni savodxon yoshlar qilib tarbiyalash uchun, ularda imloviy bilim va ko‘nikmani rivojlantirish uchun ularning amalda qo‘llayotgan darsliklari juda ham muhimdir. Ayni paytdagi amalda qo‘llanilayotgan darsliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, har bir darslikda aynan o‘quvchining imloviy bilim va ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi mavjud hisoblanadi.

Jumladan, D.Sh. Yuldasheva muallifligidagi 1-sinf ona tili darligining II qismining mundarijasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu darslikda aynan imloga oid mavzular berib o‘tilgan hisoblanadi. 26-betda berilgan “Bosh harf. Kishilar ism va familyasining bosh harf bilan yozilishi”, 30-betda esa, “Bosh harf. Ismni bildiradigan so‘zlarni aniqlash”, 32-betga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Bosh harf. Joylarga atab qo‘yiladigan nomlarning yozilishi”, 36-betda esa “Bosh harf. Joy nomlarini bildiradigan so‘zlar”, 38-betda ”Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yiladigan nomlar” va 46-betdagи “Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar” kabi ajratilgan dars soatlari aynan 1-sinf o‘quvchilarining orfografik bilim va ko‘nikmalarini paydo qilish uchun qaratilgan hisoblanadi. Shuningdek aynan 1-sinf o‘quvchilarining orfografik savodxonligini shakillantirish maqsadida “Bosh harflar olamiga sayohat” nomli bo‘limning mavjudligiyoq, albatta, juda foydali va qiziqarli jarayon hisoblanadi. Chunki, imloviy savodxonlik bu har bir shaxsning jamiyatdagi o‘rniga ta’sir etuvchi muhim omil ekanligi sababli bu jarayonni, avvalambor, o‘quvchilarga savod o‘rgatishning ilk kunlaridanoq hamda har bir bo‘g‘in, jumla va so‘zning yozma nutq tarkibida to‘g‘ri va benuqson yozilishini o‘rgatish lozim hisoblanadi. Ushbu darslikdagi berib o‘tilgan “Yodda tuting! Qoidani tushinib oling” kabi til grammatikasiga oid qoidalar ham tushunarli va soda tarzda berilishi ham o‘quvchiga juda yaxshi bilim va ko‘nikma egallashiga hissa qo‘shadi.

Jumladan, “Bosh harf. Kishilar ism va familyasining bosh harf bilan yozilishi” mavzusida berilgan “Kishilarga atab qo‘yilgan isim va familyalar har doim bosh harf bilan yoziladi.” [Yuldasheva, 2023; 28]

“Bosh harf. Ismni bildiradigan so‘zlarni aniqlash” mavzusidagi “Qiz bolalar familyasi –yeva, -ova bilan, o‘g‘il bolalar familyasi –yev, -ov bilan yakunlanadi . Masalan, Qodirova, Aliyeva, Qodirov, Aliyev.” [Yuldasheva, 2023; 31]

“Bosh harf. Joy nomlarini bildiradigan so‘zlar” mavzusida esa, “Ko‘cha, qishloq, shahar, mamlakat, qit‘a, daryo, ko‘l, dengiz, ocean, tog‘, cho‘l, orol nomlari har doim gap boshida, o‘rtasida, oxirida bosh harf bilan yoziladi.” [Yuldasheva, 2023; 36]

”Bosh harf. Hayvonlarga atab qo‘yiladigan nomlar” mavzusidagi “Laqab – bu jonivorlarga beriladigan nom. Jonivorlarning laqab (atab qo‘yilgan nom)lari kishilar ismi kabi bosh harf bilan yoziladi” [Yuldasheva, 2023; 38] hamda “Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi. Hayvon nomi kichik harf bilan yoziladi. Masalan: hayvon nomi: mushuk, laqabi – Malla.” [Yuldasheva, 2023; 32]

Biroq, yuqorida berilgan so‘nggi qoidada bizning fikrimizcha biroz g‘alizlik yuzaga kelgan, ya’ni hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi, hayvon nomi kichik harf bilan yoziladi degan jumla. Bunda atoqli otlar shaxs nomlari, hayvon nomlari, joy nomlari degan termin bilan qo‘llaniladi, turdosh otlar esa shaxs otlari, hayvon otlari, o‘rin-joy otlari kabi turlarga ajratiladi. Ya’n, yuqoridagi qoidada ham hayvon nomi - mushuk emas, balki hayvon turi - mushuk deya qo‘llanilishi maqsadga muvofiq edi degan fikrdamiz. Chunki, yuqori sinfga kelib o‘quvchi o‘zbek tili grammatikasi bilan yaqindan tanishganda, albatta, bir qancha savollarga duch kelishi mumkindir.

Ammo, ushbu darslikda oldingi nashrdagi darsliklarga qaraganda orfografiyaga ajratilgan soatlarning ko‘plig, albatta, quvonarli holat hisoblanadi.

S.D. Kuranov muallifligidagi 2-sinf ona tili darsligining I qismidagi ajratilgan 5-mavzu esa aynan 2-sinf o‘quvchilarining orfografik bilimlarini boyitishga qaratilgan hisoblanadi. Ushbu “J, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosini o‘rganamiz” [Kuranov, 2023; 60] nomli mavzuda b oshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ushbu harf va tovushlar ishtirokida so‘z va birikmalarini aynan to‘g‘ri talaffuz va yozuvdagi shaklini turli mashq va topshiriqlar yordamida o‘zlashtirish borasida tizim tashkil etilgan hisoblanadi. Ushbu mashqlarda va qoidalarda o‘quvchilarga portlovchi (j) va sirg‘aluvchi (dj) tovushlarining so‘zlar tarkibida qatnashishi hamda talaffuz va imlosi o‘quvchiga amaliy tarzda o‘rgatilib boradi.

Hattoki, darslikdagi mashq va topshiriqlarda aynan x va h tovushlarining so‘zlar tarkibida kelishini o‘quvchiga ko‘nikma sifatida shakillantirish maqsadida o‘quvchiga aynan lug‘at bilan ishlash bo‘yicha tavsiya hamda topshiriq berilishi ham ushbu darslikdagi o‘quvchini rivojlantiruvchi omil sifatida e’tirof etadigan hol hisoblanadi. Darslikda berib o‘tilgan: “Ayrim hollarda x va h tovushlari so‘zning ma’nosini ham o‘zgartiradi”

deya berilgan qoida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun paronimlar va ularning boshqasi o‘rnida qo‘llanilib ishlatilishi nutq mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborishi haqidagi bilimning ilk bosqichlari bo‘lib xizmat qiladi.

D.D. Baynazarova muallifligidagi 3-sinf ona tili darsligining III qismida esa “Yasama otlarning imlosi” [Baynazarova, 2023; 56-59] mavzusi uchun aynan 2 soat hamda “Sifatlarning yozilishi” [Baynazarova, 2023; 92] kabi mavzular ham o‘quvchining imloviy savodxonligini oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Ushbu mavzular orqali esa o‘quvchi yasama ot tarkibidagi asos va qo‘srimchaning qo‘sib yozilishini o‘rganadilar. Hamda sifat va uning yozilishi (imlosi) mavzusida ham aynan asos va qo‘srimcha hamda uning qo‘sib yozilishi kabi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar. “Yasama otlarning imlosi” mavzusida esa aynan asos va qo‘srimchani ajratishga oid test topshirqlari ham o‘quvchining bilim va ko‘nikmasini mustahkamlashi bilan bir qatorda, o‘quvchi uchun juda qiziqarli mashg‘ulot bo‘la oladi.

D.D. Baynazarovaning muallifligidagi 4-sinf ona tili darsligining III qismida ham aynan sifat so‘z turkumining imlosiga bag‘ishlangan 18-19-mavzular ham o‘quvchilarda aynan sifat so‘z turkumining imloviy jihatdan yozilishi uchun ajratilgan hisoblanadi. Bunda yasama sifatlarning imlo qoidasining asos va qo‘srimchalarning yozilish qonuniyatları bilan bir qatorda, turli darajaga ega sifatlarning imlosi ya’ni chiziqcha bilan yozish kabi bo‘limlariga ham urg‘u berib o‘tiladi. Masalan, 68-mashqni ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak:

“68-mashq. Juftlab berilgan so‘z birikmalarini o‘qing. Ma’nosidagi farqni ayting.

Tiniq suv – tip-tipniq suv

Yashil qir – yam-yashil qir

Oq ko‘ylak – oppoq ko‘ylak

Katta bola – kap-katta bola

Qizil mato – qip-qizil mato

Pushti gul – och pushti gul

Sariq barg – sarg‘ish barg

Qora sandiq – qop-qora sandiq.

Ko‘chiring sifatlarni yozilishini yodda tuting.” [Baynazarova, 2023; 52]

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, amaldagi boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida oldingi nashrdagi darsliklarga qaraganda orfografiya bo‘limiga e’tibor alohida qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning aynan yozma savodxonligini rivojlantirish, ularda yozuv malakalarini shakillantirishga juda katta e’tiborqaratilgan hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad shuki, har bir o‘quvchidan kelajakda o‘z fikrini nafaqat og‘zaki tarzda balki yozma tarzda ham to‘g‘ri va ravon ifoda eta oladigan salohiyatlari kadrlarni tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baynazarova D.D. Ona tili 4-sinf III qism. Darslik. “Novda”. Toshkent. 2023. – 94 b.
2. Baynazarova D.D. Ona tili 3-sinf III qism. Darslik. “Novda”. Toshkent. 2023. – 94 b.
3. Kuranov S.D. Ona tili 2-sinf I qism. Darslik. “Novda”. Toshkent. 2023. – 85 b.
4. Qosimova K. , Matchonov S. v.b. Ona tili o‘qitish metodikasi. “Noshir”, Toshkent. – 2009. 351 b.
5. Yuldasheva D.Sh. Ona tili 1-sinf II qism. Darslik. “Novda”. Toshkent. 2023. – 85 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>